



TALABALRIDA KOPERATSION YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Qurbonova F.M.

*Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: hamkorlikni rivojlantirish, ta'lim munosabatlari ishtirokchilari, hamkor tashkilotlar, talabalar ta'lim yo'nalishi, professional kompetensiyalar, shaxsiy va kasbiy rivojlanish, pedagogika tushunchasi hamkorlik, qonunchilik ta'lim dasturlari, uzluksiz ta'lim.

Ключевые слова: развитие сотрудничества, участники образовательных отношений, партнерские организации, обучение студентов, профессиональные компетенции, личностно-профессиональное развитие, педагогическая концепция сотрудничества, программы законодательного образования, непрерывное образование.

Key words: development of cooperation, participants of educational relations, partner organizations, student education, professional competencies, personal and professional development, pedagogic concept of cooperation, legislative education programs, continuous education.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikr va mulohazalar ham bevosita ta'lim tizimiga taalluqlidir: «Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimiz kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi».

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda prezidentimiz tomonidan bitiruvchi yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish uchun qator farmonlar imzoladi hamda ularni amalga oshirish chora tadbirlari ishlab chiqildi. Jumladan 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish bugungi kata hayot



ostasida turgan yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratib beradi . O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2021 yildagi 792-son.[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" .

Kasb atamasi 1960-yillardagi Amerika professional sotsiologiyasidan kelib chiqqan bo'lib, unda kasb modeli ishlab chiqilgan. "Professionallik" (kasb) atamasi analitik-refleksiv harakat jarayonlari va ularga qo'yiladigan talablarga qaratilganligi sababli pedagogik fanda qo'llaniladi.

Kasb so'zining etimologik ildizlari uning barcha hosilalarida o'z izini qoldirgan. Uning asl lotincha ma'nosi «e'tirof etish» edi, bu muhim bo'lgan narsani ommaga e'lon qilishga tayyorligini bildiradi. Aynan shu zamonda insonlar ongida eng muhim narsa din hisoblanar edi. Masalan, Vebsterning uchinchi yangi xalqaro lug'ati birinchi bo'lib professiyani diniy qasamyod qilishning ommaviy harakati sifatida ta'riflagan. Ushbu yo'naltirilgan boshlang'ich nuqtadan boshlab, uning ma'nosi diniy bo'lmagan ochiq e'tiqod deklaratsiyasini o'z ichiga oladi. Va bizning maqsadlarimiz uchun «kasb» jadal tayyorgarlik va yuqori yutuqlarni talab qiladigan va davlat xizmatini ko'rsatadigan chaqiruvlarni ham o'z ichiga oladi. Va nihoyat, uning ma'nosi yumshab, bugungi kunda ko'pchilik bu atamani kamroq cheklovchi foydalanishni o'z ichiga oladi: asosiy chaqiruv, kasb yoki ish»- boshqacha qilib aytganda, odamning ko'p vaqtini egallaydigan va umri davomida shug'ullanadigan ma'lum bir mashg'ulot turi kasb deb ataladi.

Jamiyatda o'zligini anglagan shaxs borki, u shu jamiyat a'zolariga manfaati tegadigan biror bir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Xalqimizni kasb – xunarni yomoni bo'lmaydi, degan maqolidan kelib chiqib ta'kidlashimiz mumkinki kasb – hunari orqali xalq e'tiboriga sazovor bo'lganlar haqida tariximizdan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'z kasbini mohir ustasi sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxslar qatorida kasbidan zerikish hamda kasbidan so'vish xolatlari ham uchrab turishi so'ngi vaqtlarda ko'plab ijtimoiy fan vakillarini o'ziga jalb etib kelmoqda. Umumiy psixologiyani asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanmish mehnat psixologiyasi yo'nalishida shaxs o'z faoliyatiga nisbatan ishtiyoqining so'nish jarayoniga alohida e'tibor qaratilib, turli yo'nalishda tadqiqotlar olib borilmoqda.[4]

Kasbiy tayyorgarlik mutaxassisning butun faoliyati davomida ma'naviy axloqiy hamda kasbiy sifatlarining yanada takomillashishi, kasbiy kompetentlikning shakllanishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ifodalaydi. Keltirilgan mazkur vazifalarning amaldagi ijrosi pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yiladigan masalalardan



eng muhimi, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvlarni talab etadi:

- mehnat bozori talablari hamda ilm-fan, texnika, texnologiya va iqtisodiyotning eng so,,nggi yutuqlari asosida uzviy ravishda takomillashtirilib turiladigan kasbiy ta'lim dasturlarini yaratish;
- uzluksiz ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish orasidagi o'zaro mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy moddiy-texnik baza va o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimiga yuqori malakali o'qituvchi, metodist va muhandis pedagoglarni jalb etish;
- bo'lajak o'qituvchilarning bilish faolligi, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ularda faol kasbiy motivatsiyani qaror toptirish;
- oliy ta'lim muassasalari o'quv amaliyotiga innovatsion o'qitish texnologiyalarini keng tatbiq etish zaruriy omillardan hisoblanadi.[5]

Shaxsdagi qobiliyat yoki kasbiy ko'nikma "yashash muhiti" ga bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi (muhit uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin). "Yashash muhiti" deyilganda, oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, litsey, kollej, oliy o'quv yurti, ishchilar jamoasi, mikrosotsium (do'stlar, tanish–bilishlar va boshqalar) nazarda tutiladi. Ya'ni ko'nikma insonning irsiy, biologik qobiliyati, qiziqish– mayli sifatida uning "ichki olami"da tug'iladi, tabiatiga ko'ra sub'ektiv sifat bo'lib, obyektiv shart–sharoitlarga bog'liq ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Ko'nikma o'zichiga nafaqat intellektni, balki effektiv xulq–atvor, qobiliyat, ichki motivatsiyani ham qamrab oladi. Ichki motivatsiya individning qadriyatlarini belgilab beradi, olimning fikricha, u ko'nikmaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega .

Mehnat bozoridagi o'zgarishlarning jadal sur'atlari, axborot oqimining kuchayishi va tanlov qilish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjudligi bilan ajralib turadigan jamiyat yoshlarning oldiga yuqori talablarni qo'yadi. Ular o'zlari uchun mavjud bo'lgan tanlov va imkoniyatlarni va turli xil tanlovlar va qarorlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tushunishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, masalan, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi maslahatchilar va o'qituvchilar yoshlarni ushbu murakkab dunyoda harakat qilishda, qo'llab-quvvatlashda markaziy ro'l o'ynaydi. Tadqiqotlar ta'lim va kasb tanlashda tanlash erkinligi, stress, bosim va ruhiy kasalliklarga qanday hissa qo'shishi mumkinligini aniq ko'rsatdi. Turli xil ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga bir xil sharoitlarda tanlash imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va shu tariqa



yoshlarning o'qish va kasb tanlash jinsi yoki ijtimoiy-iqtisodiy yoki madaniy xususiyatlari bilan cheklanishiga yo'l qo'ymaslik uchun rahbarlik va qo'llab-quvvatlash ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga samarali tayyorgarlikni amalga oshirish, talabalarni koperatsion (hamkorlik) yondashuv orqali kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning ob'ektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikatsiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu boisdan ham, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo'lajak mutaxassislarining kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2016. 13-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2021 yildagi PQ-5140-son
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2021 yildagi 792-son4. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixosi. -T.: O'qituvchi, 1997. – 197 b. K.B.Qodirov “Kasb tanlashga tayyorlashning psixologik jihatlari va professional loyihalar” Toshkent, 2001. – 36 b.
4. Tolipov O'Q Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Monografiya. – T.: Fan, 2004.b – 73-80.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kasbiy rivojlanishni takomillashtirish va ta'lim sohasidagi munosabatlar va ishtirokchilar o'rtasidagi koperatsiya (hamkorlik) amaliyotning ilmiy va amaliy tadqiqotlariga bag'ishlangan. Talabalarda kasbiy rivojlanishda koperatsion yondashuvning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Mamlakatimizni iqtisodiy,siyosiy va ma'naviy jixatdan ertangi kuni hisoblangan bo'lajak pedagoglarni o'z kasbini mohir ustasi bo'lib yetishishi uchun tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена научно-практическим исследованиям вопросов совершенствования профессионального развития в высших учебных заведениях и практики сотрудничества (сотрудничества) между отношениями и участниками сферы образования. Студентам рассказывают о роли и важности кооперативного подхода в профессиональном развитии. Даны рекомендации по развитию будущих педагогов, которые считаются будущим нашей страны с экономической, политической и духовной точки зрения.

SUMMARY

This article is devoted to the scientific and practical studies of the improvement of professional development in higher educational institutions and the cooperation (cooperation) practice between the relations and participants in the field of education. Students are told about the role and importance of cooperative approach in professional development. Recommendations have been made for the development of future pedagogues, who are considered to be the future of our country from the economic, political and spiritual point of view.